



Xalq so'zi

2024-YIL – YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 10-yanvar, № 6 (8629)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skanner qiling.



SAVDO VA XIZMAT KO'RSATISH, MADANIYAT SOHALARI Dagi LOYIHALAR TAQDIMOT QILINDI

President Shavkat Mirziyoyev
9-yanvar kuni savdo va xizmatlarni
rivojlantirish, turizm va madaniyat
maskanlarini barpo etishga oid
taqdimot bilan tanishdi.

Bu haqda o'tgan yili
18-dekabrda bo'lgan
videoselektor yig'ilishiда
topshirqlar berilgan edi.
Xususan, mamlakatimizda
turizm salohiyati katta
ekani, uni samarali ishga
solib, turizm maskanlari
va mehmon o'rinnarini
ko'paytirish lozimligi
ta'kidlangandi.

Taqdimotda shunga
muvofiq tayyorlangan
loyihalar ko'rib chiqildi.

Q a s h q a d a r y o
viloyatining Shahrabsz,
Toshkent viloyatining
Parkent tumani tog'lari
juda xushmanzara.
Ayniqsa, bahor-yoz
mavsumida sayyoqlar
bilan gavjum. Bu
boradagi sharoitlarni
kengaytirish maqsadida
Shahrisabzdagi Miraki,
Parkenting Nurobob va
Kumushkon hududlarida
zamonaviy dam olish
maskanlarini barpo etish
ko'zda tutilgan.

Shuningdek, Qashqadar yodagi
Maydanak tog' maskanlari yengil
konstruksiyali xostellar
qurish, mavjud binolarni
savdo va xizmatlarga
qayta ixtisoslashtirish,
hududni obodonlashtirish
mo'ljalangan.

Turistlar boradigan
joylardan biri bu —
bozor. Lekin bugungi
kunda ayrim bozorlarimiz
turistlar uchun jozibador
emas, ularda milliy kolorit
yetishmaydi.

Shu bois davlatimiz
ra h b a r i m i l l i y
madaniyatimizni aks
ettirgan bozor majmualari
loyihasini ishlab chiqish
vazifasini qo'ygan edi.

Taqdimotda tarixiy
shaharlarimizda qo'sh
bozorlarni turistlar uchun
berdi.

O'ZA.

jozibador maskanlarga
aylantirish bo'yicha
dastlabki loyihalar
namoyish qilindi.

— Bozorlarningizning
o'ziga xos jihatlarini
saqlab qolgan holda
ularni yurtimizning "tashrif
qo'g'zo"ga aylantirish
kerak. Oziq-ovqat, kiyim-kechak, zargarlik
do'konlari, oshxonalar, ko'nglochar maskanlar
hamohang bo'lishi, xardorlar va touristlarni
o'ziga jalb qilishi zarur, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bu borada Turkiya
va arab mamlakatlari
tajribasini o'rganish,
loyihalashtirishga xorijiy
mutaxassislarni taklif etish
muhimligi aytil o'tildi.

Taqdimotda Toshkent,
Samarqand, Buxoro
va Xiva kabi turizm
markazlarida qurilishi
rejalashtirilayotgan
bozorlar haqida ham
axborot berildi. Davlatimiz
rahbari ularda ham
hududi koloritni aks
ettirish, touristlar uchun
kengroq sharoit yaratish
bo'yicha ko'rsatmalar
berdi.

Prezidentimiz
Respublika Ma'naviyat
va ma'rifat kengashining
majlisida Toshkent davlat
sirki faoliyatini yaxshilash
masalasiga to'xtalib o'tgan
edi. Bugungi taqdimotda
ushbu madaniyat
dargohni ta'mirlash,
soha uchun kadrlar
tayyorlashda ta'lum
va amaliyotni uyg'unlashtirish
maqsadida 300 o'rinni
o'quv binosini barpo etish
rejalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari
loyihalarni takomillashtirish
va sifatli qurish yuzasidan
qo'shimcha ko'rsatmalar
berdi.

Shu ma'noda, turizm sektori o'zaro
aloqalarning muhim jabhalaridan biri
sifatida ajralib turadi".

E'tirof

"O'zbekiston va Hindiston o'rtaqidagi
ko'p qirrali hamkorlik chuqur tarixga
ega. Ikki davlat turli yo'nalishlarda,
jumladan, siyosat, iqtisodiyot, ta'lum,
sport, madaniyat va gumanitar sohalarda
uzoq yillardik hamda vaqt sinovindan o'tgan
sheriklik munosabatlarini rivojlantirib
kelmoqda, — deb qayd etilgan nashrda.
— Shu ma'noda, turizm sektori o'zaro

aloqalarning muhim jabhalaridan biri
sifatida ajralib turadi". Material muallifi O'zbekiston
Hindistonda o'zining salmoqsi sayyoqli
salohiyatini targ'ib qilishdan manfaatdor
ekani, hindistonlik sayoyatchilarga
mamlakatning boy madaniyati va
an'analari, albatta, tashrif buyurilishi
kerak bo'lgan maskanlari, shuningdek,
zamonaviy ta'lum olish uchun qulay
sharoitlar yaratilgan Toshkent,
Samarqand, Buxoro, Xiva, Andijon,

Farg'onan, Namangan va boshqa qadimiy
hamda hamisha navqiron shaharlari
haqida rang-barang ma'lumotlarni taqdim
etayotgani to'g'risida so'z yuritgan.

"Bu sa'y-harakatlarda O'zbekistonning
Dehlidagi elchixonasi ikki mamlakat
o'rtaqidagi bog'lovchi ko'prik
vazifasini o'tamoqda, turli marketing
kampaniyalarida ishtiroy etish, yangi
sayohat paketlarni taqdim qilish va
Hindiston bo'ylab iste'molchilar uchun
targ'ib tadbirlarini o'tkazish orqali yuksak
rejalarni amaliyotga tabtiq etmoqda", deb
ta'kidlangan "Business of Travel
Trade — BOTT" muxbir.



Hindistonning "Business of Travel Trade — BOTT" ixtisoslashtirilgan
sayyoqlik jurnalida qadimiy Samarkand shahri va turizm sohasidagi
O'zbekiston — Hindiston hamkorligi haqida magolalar chop etildi.

Nuqtai nazar

RAQAMLI IQTISODIYOT — TARAQQIYOT DRAYVERI

Har bir davrning o'z dolzarb vazifalari va muammolari bo'ladi. Bugungi kunimizning eng muhim
talabalaridan biri raqamli iqtisodiyotni joriy etishdir.

2020-yil mamlakatimizda "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon
qilinib, o'shandan beri bu borada salmoqli ishlarni amala oshirildi. Xususan, 2020-yil 28-aprelida
davlatimiz rahbarining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-
tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Ayni kunlarda ko'plab taraqqiy etgan
mamlakatlarda raqamli texnologiyalar
iqtisodiyot rivojini tezlashtirmoqda
hamda aholi farovonligini oshirmoqda.
Masalan, raqamli iqtisodiyot ravnaqini
davlat tononidan tartibga solish
bo'yicha AQSH, Xitoy, Janubiy Koreya,
Yaponiya, Rossiya, Yevropa Ittifoqi
davlatlari tajribasi bu borada, asosan,
ikkita — bozor va ma'muriy boshqaruv

yondashuvlari mavjudligidan dalolat
bermoqda.

Jumladan, AQSHda "Kun tartibida
— raqamli iqtisodiyot" deb nomlangan
birinchik humkumat dasturi 2015-yilda
ishlab chiqilgan. U mamlakat uchun
asosiy imkoniyatlarni ta'minlaydigan
to'rtta bloki o'z ichiga oladi. Bular
— erkin va oshkora internet
qatnashadigan tarmoqlar va sohalar

barqarorlashtirish, tarmoqqa erkin
kirish va barcha xohlovchi uchun
professional ko'nikmalarin egallash
imkoniyati, innovatsiyalar hamda
ta'sirchan Samaralar beruvchiga va
yorqin yangi avlod texnologiyalarini
joriy etish. Shunday qilib AQSH
siyosati raqamli iqtisodiyotni
rivojlantirishga, bu jarayonda
qatnashadigan tarmoqlar va sohalar

ulushini ko'paytirishga, IT sanoat
bilan shug'ullanadigan tadbirkorlarni
har tononlama qo'llab-quvvatlashga
qaratilgan.

AQSHdan farqli o'laroq,
Yevropa Ittifoqida eng a'zo
mamlakatlardan iqtisodiyoti va
sanoat tarmoqlarining raqamli
o'zgarishini jadvallashtirishga
qaratilgan 30 dan ortiq davlatlar
milliy va mintaqaviy dasturlari
hamda strategiyalari mavjud.
Yevropada raqamlashtirishga
yo'naltirilgan yagona yo'nalishni

shakllantirish xususiy biznesni
mazkur loyihalarga jalb qilish bilan
teknika va bozor innovatsiyalarini
davlat tononidan qo'llab-quvvatlash
yo'sinida amala oshirilmoqda.
Qit'a davlatlarining raqamlashtirish
sohasidagi siyosatining asosiy
tamoyillari axborot-kommunikatsiya
texnologiyalari uchun yagona Yevropa
qoidalarini va standartlarni ishlab
chiqish, iste'molchilar manfaatlarini
himoya qilish hamda tadqiqot va
innovatsiyalarini qo'llab-quvvatlashdan
iborat.

►2

O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

Xalq va armiya — bir tanu bir jon!

YUKSAK JANGOVAR RUH — ASKARNING YENGILMAS KUCHI, ARMIYANING QUADRATIDIR

Ahamiyat berilsa, dunyo son-sanoqsiz g'oya va mafkuralar bilan to'lib-toshsha-da, ularning hech biri insoniyatni Vatanga bo'lgan muhabbat va sadogatchilik haqqoniy va sharaflı ruhda birlashtira olmasligini ko'satadi. Bu tuy'u qon bilan kirib on bilan chiqar darajada qadim hamda muqaddas bo'lib, xalqning boy qadriyatlari, ma'naviy merozi, o'zligi va tarixini o'zida mujassam etadi. Ma'naviy boylikdan uzilgan har qanday sohaning muqarrar tanazzulini yon-atrofimizda sodir bo'layotgan ijtimoy-siyosiy voqealar misolida ko'rib, bilib turibmiz.

Bu o'rinda bejiz ma'naviy yemirilish haqida so'z ochilmadi. Chunki jahonda yuz berayotgan qurollи to'qnashuvlar tahlili kuchi iroda va sadoqat, mustahkam vatanparvarlik tuyg'usi hal qiluvchi omillardan biri ekanini ko'rsatmoqda. Shaxsiy kuzatuv va xulosalarimiz asosida Qurolli Kuchlarimiz, xususan, milliy armiyamiz salohiyatining tubdan o'sishi, dunyoga yuz tutishida ma'naviy omillarning o'mni va ta'siri qanchalik muhim ekanini his etmoqdamiz. Bunda Mudofaa vazirligi qo'shinarlarda tarbiyaviy va mafkuralar ishlarni tom'onidan amalga oshirilgan keng qamrovi sa'y-harakatlarning o'mni benihoya katta.



"Vatan — muqaddas,
uni himoya qilish
sharaflı burchdir!"

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining Farmon va qarorlari,
Vazirlar Mahkamasi va Mudofaa vazirligi
tononidan belgilangan topshirilgan

shuningdek, Respublika Ma'naviyat va
ma'rifat markazi, Madaniyat vazirligi,
O'zbekiston O'zuvchilar uyushmasi
bilan hamkorlikda Mudofaa vazirligi
qo'shinarlarda ma'naviy-ma'rifyi
va madaniy ishlarni rivojlantirish
bo'yicha 2023-yilga mo'ljallangan
"Yo'l xarita"ning faol ijrosi yugorda

keltirilgan tadbirlarning asosi bo'lib
xizmat qildi.

"Vatan — muqaddas, uni
himoya qilish sharaflı burchdir!"
konseptual g'oyasi asosida olib
borilgan amalyi ishlarni yurtimizning
eng chekkal hududlarigacha
aks sado berdi.

►3

SAMARQAND — JAHON MADANIY TURIZM POYTAXTI



Hindistonning "Business of Travel Trade — BOTT" ixtisoslashtirilgan
sayyoqlik jurnalida qadimiy Samarkand shahri va turizm sohasidagi
O'zbekiston — Hindiston hamkorligi haqida magolalar chop etildi.

Sarhisob AHOLI BILAN ISHLASH DOLZARB MASALA

Kecha Oliy Majlis Senatining Sud-huquq
masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish
qo'mitasiga tononidan 2023-yildagi faoliyat
sarhisobiga bag'ishlangan yig'ilish tashkil
etildi.

Ta'kidlanganidek, o'tgan
yili mamlakatimiz hayotida
muhim ahamiyatiga ega qator
muhim voqealar — yangi
tahridagi Konstitutsiya bo'yicha
referendum va Prezident
saylovi hamda bir nechta
xalqaro formularga guvoh
bo'ldik. Bu jarayonlarning
barchasida senatorlar, shu
jumladan, qo'mita a'zolari ham
tashkilotlari vakillari va
huquqshunoslardan tarkib
topgan ishchi guruh bilan
hamkorlikda salkam bir yil
davomida o'rganib chiqildi.

Muhokamalar jarayonida
qonun loyihasi ishlab chiqildi
va parlament palatalari
tononidan qabul qilindi.
Joriy yilda ham ushbu sa'y-
harakatlar davom ettirilayotir,
ya'ni qo'mita mas'uligida 2
ta dolzarb masala o'rgаниlmoqda.

►2

PARLAMENTLARARO ALOQALARINI RIVOJLANTIRISHGA USTUVOR AHAMIYAT QARATILDI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Xalqaro
ishlar va parlamentlararo aloqalarini qo'mitasiga
o'tgan yildagi faoliyatida asosiy e'tibori qo'shni
mamlakatlar bilan o'zaro munosabatlarni
mustahkamlash hamda ochiq, o'zaro manfaatlari
va amalyi tashqari hamkorlikka qaratilgan siyosat
barobarida xorijiy mamlakatlarning parlamentlari
bilan o'zaro aloqalarini yanada jadallashtirish
kabi muhim yo'nalishlarning huquqiy poydevorini
yaxshilashga qaratidi.

Bu haqda qo'mitaning
2023-yildagi faoliyat yuzasidan
tashkilot etilgan briefingda ma'lum
qilindi.

Ta'kidlab o'tilganidek, o'tgan
vaqt davomida qo'mita qonun
ijodkorligi faoliyatini yo'nalishida
10 ta qonun loyihasiga mas'ul
bo'lgan. Qonun loyihalarini
takomillashtirish hamda
xorijiy mamlakatlarning tarjibasini
o'rganishda xalqaro huquqni
qo'llash amalyoti va xalqaro
huquq mezonlari fugarolik
jamiyatining boshqa instituti
vakillaridan iborat ekspert guruhi
imkoniyatlaridan samarali foydalanildi.

►2

